

TASAVVUFNING KELIB CHIQISHI TARIXI

Jo'rayeva S. - SHDPI talabasi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqola tasavvufning kelib chiqishi, uning tarixiy rivojlanishi va ijtimoiy-madaniy ta'sirini o'rganishga bag'ishlangan. Maqolada tasavvufning ilohiy g'oyalardan boshlangan dastlabki shakllari, uning zohidlik va asketizm bilan bog'liqligi, keyinchalik tariqatlarga aylanishi va butun Islom olamiga tarqalishi tahlil qilinadi. Tasavvufning ruhiy poklanish, Allohni sevish va insonni ma'naviy jihatdan yuksaltirishdagi o'rni ko'rsatiladi.

Kalit so'zlar: tasavvuf, tariqat, zohidlik, ruhiy poklanish, Ibn Arabiy, Jaloliddin Rumi, Qur'on, hadis, islomiy falsafa.

Tasavvuf – Islom dini doirasida shakllangan ruhiy-tarbiyaviy yo'nalish bo'lib, insonning ichki poklanishi, Allohga muhabbat orqali Unga yaqinlashish va ma'rifatga erishishni maqsad qiladi. Tasavvufda qalbni poklash, dunyoviy ehtirolardan voz kechish va ilohiy muhabbat orqali komillikka intilish asosiy tamoyillardan hisoblanadi. U nafaqat diniy yo'nalish sifatida, balki axloq, ruhiyat va falsafani ham qamrab olgan keng qamrovli tushuncha hisoblanadi. Tasavvufning kelib chiqishi birinchi asrlarda Islomning diniy va axloqiy tamoyillariga asoslangan holda rivojlangan. Uning asoslari Qur'on va hadisga tayangan bo'lib, ilk davrlarda “zuhd” nomi bilan mashhur bo'lgan. Zuhd – bu dunyoviy lazzatlardan voz kechib, faqat Allohga yaqinlikni maqsad qilishni anglatadi. Tasavvuf keyinchalik nazariy va amaliy yo'nalishlarda rivojlandi. Nazariy tasavvufda Allohning sifatleri va borliqni tushunish tahlil qilingan, amaliy tasavvuf esa zikr, murid va murshid kabi ruhiy amaliyotlarni rivojlantirgan. Tasavvuf musulmonlar yashaydigan barcha hududlarda keng tarqaldi. Arab mamlakatlari: Bu yerda tasavvuf dastlab zohidlik (zuhd) shaklida rivojlandi. Tasavvuf islomning chuqur ma'naviy va falsafiy oqimi bo'lib, uning kelib chiqishi va rivojlanishi tarixiy sharoitlar va diniy ta'limotlar bilan chambarchas bog'liq. Aslida, tasavvuf nafaqat islomiy g'oyalarga asoslangan, balki u boshqa diniy va falsafiy tizimlar bilan ham aloqaga kirgan. Qur'on va hadislar tasavvufning muhim manbalari sifatida qaraladi, lekin uning shakllanishida zohidlik va asketizm ham katta rol o'ynagan.

Qur'on va hadislar tasavvufning axloqiy va ruhiy tamoyillarini belgilovchi asosiy manbalardir. Ular orqali ichki poklik, ixlos, va Alloh bilan yaqinlik masalalari o'rganiladi. Bundan tashqari Qur'on va hadisda har bir tariqat va suralarga alohida to'xtalib o'tilgan. Tasavvufning diniy asoslari Qur'on oyatlari va hadislar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, unda insonning ruhiy va axloqiy kamoloti, Allohga yaqinlik (ma'rifat), va dunyodan voz kechish kabi tamoyillar asosiy o'rinni egallaydi.

Ushbu tamoyillar quyidagi asosiy yo‘nalishlarda ko‘rinadi:

Qur'on Oyatlariga Tayanish

Tasavvufning ko‘p g‘oyalari Qur'on oyatlaridan kelib chiqadi. “Albatta, Alloh sizlarning jismlaringizga va tashqi ko‘rinishingizga emas, balki qalblaringizga va amallaringizga qaraydi” (Hadis). Qur'ondagi shu bilan bog‘liq oyatlar: “Alloh taqvor bo‘lganlarni sevadi.” (Tavba surasi, 9:108). Bu oyatlar tasavvufiy ta‘limotdagi qalbning poklanishiga urg‘u beradi.

Allohga muhabbat va yaqinlik: “Allohni ko‘p zikr qiling!” (Ahzob surasi, 33:41). Tasavvufda zikr amaliyoti (Allohni doim yodda saqlash) ushbu oyat asosida amaliyotga kiritilgan. “Men Bandamni sevaman. Agar u Menga bir qadam yursa, Men unga qarab yuraman.” (Hadis qudsiy). Bunday ilohiy muhabbatni tushunish tasavvufda asosiy maqsadlar biri hisoblanadi desak adashmagan bo‘lamiz. Qur'onda sabr va shukr tasavvufda ruhiy komillikning asosi sifatida ko‘rsatilgan: “Sabr qiluvchilar uchun ularning mukofoti hisobsiz beriladi.” (Zumar surasi, 39:10). “Agar shukr qilsangizlar, Men sizlarga ko‘proq beraman.” (Ibrohim surasi, 14:7). Fano va baqo (Allohda yo‘qolish va abadiy yashash): Tasavvufda “Fano fillah” tushunchasi Qur'ondagi “Hamma narsa yo‘q bo‘ladi, faqat Rabbining zoti abadiydir” (Rahmon surasi, 55:26-27) oyatlaridan olingan. Hadislar tasavvufiy tamoyillarning shakllanishida katta rol o‘ynaydi. “Eng yaxshi inson – boshqalarga foydasi tegadigan kishidir.” Tasavvufda insoniy xizmat va ixlos asosiy jihatlardan hisoblanadi. “Bu dunyo mahluqotning qamoqxonasidir, mo‘minlarning imtihoni va oxirat yo‘lidagi omonatidir.” Bu hadis tasavvufdagi dunyoga nisbatan befarqlik va Allohga qaratilgan e‘tiborni asoslaydi.

Tavakkul (Allohga suyanish): “Agar siz Allohga chin dildan tavakkul qilsangiz, u sizga qushlarni boqayotganidek rizq beradi.” Tasavvufda tavakkul Allohga to‘liq ishonch va o‘zining ojizligini tan olishni ifodalaydi.

Diniy Asoslarning Tasavvufga Ta’siri

Qalbni poklash: Qur'on va hadisga asoslangan holda, qalbni hasad, manmanlik va dunyoviy xohishlardan poklash tasavvufning eng muhim amaliyoti hisoblanadi.

1. Abu Nasr Sarraj (vaf. 988) – “Kitob al-Luma” Bu asar tasavvufning ilk nazariy tizimlaridan biri bo‘lib, tasavvufiy hayot, tariqat odoblari va tasavvufning asosiy tamoyillarini yoritadi.

2. Abul Qosim al-Kushayriy (986–1074) – “Risalat al-Qushayriyya”. Ushbu asar tasavvufning asosiy terminlari va tariqat amaliyotlari haqida ensiklopedik ma‘lumot beradi. Kushayriy tasavvufiy tushunchalarni Islomning Qur'on va hadisga asoslanganligi bilan isbotlaydi.

3. Abu Hamid al-G‘azzoliy (1058–1111) – “Ihyou Ulum ad-Din”. G‘azzoliy bu asarda tasavvufni shariat va aqida bilan birlashtirgan holda, uning amaliy jihatlarni yoritadi. Kitobning maqsadi shariat qoidalariga asoslangan holda, insonning qalbiy poklanishini va Allohga yaqinlashish usullarini ko‘rsatishdir. Tasavvufiy jihatdan olib

qaraydigan bo'lsak riyodan qochish, ixlos, va zikr kabi mavzularni yoritadi.

4. Fariduddin Attor (1145–1221) – “Mantiq ut-Tayr”. Bu mashhur asar tasavvufiy ramzlar yordamida insonning ruhiy o‘z-o‘zini anglash yo‘lini ifodalaydi. Simurg’ qushi ramzi orqali Attor ruhning ilohiy mohiyatga erishish jarayonini ifodalaydi. Mazmun jihatidan bu asar tasavvufning falsafiy va ramziy jihatlariga alohida e’tibor qaratadi.

5. Jaloliddin Rumiy (1207–1273) – “Masnaviy Ma’naviy”. Tasavvuf adabiyotidagi eng muhim she’riy asarlardan biri. Rumiy Allohni sevish, insonning ruhiy o‘sisini va ilohiy ilhom haqida yozadi. Masnaviyda hikmatlar, masallar va she’rlar orqali tasavvufning falsafiy tamoyillari yoritiladi. Ruhiy holatlarni tasvirlash va murakkab tushunchalarni sodda va hissiy yo‘sinda ifodalash bilan ajralib turadi. Ahmad Yassaviy, Alisher Navoiy kabi shoirlarning asarlari orqali tasavvufning jamiyat va madaniyatga ta’siri o‘rganiladi. G‘arb va Sharq olimlari tomonidan yozilgan tasavvufga oid ilmiy tadqiqotlar tarixiy va falsafiy yondashuvlarni o‘rganish imkonini beradi.

Tasavvuf haqida tushunarliroq qilib gapiradigan bo'lsak, bu insonning Allohga yaqinlashish yo‘lidagi ruhiy amaliyotlarini o‘rganadigan yo‘nalish. Tasavvufda har bir kishi o‘zining qalbini poklash, yaxshi odobni rivojlantirish va Allohni sevib, unga yaqin bo‘lishni maqsad qiladi. Bu tushunchani Qur’onda ham, hadisda ham ko‘p o‘rinlarda uchratamiz. Masalan, “Allohni doim yodda saqlang!” degan oyat (Ahzob surasi, 33:41) zikrni – ya’ni Allohni eslab, uni qalb bilan his qilishni tasavvufda asosiy tamoyilga aylantirgan. Bundan tashqari, “Mo‘minlarning Allohga eng yaqinlari – qalblarini poklaganlari” degan hadis tasavvufning ichki poklikka urg‘u berishini tushuntiradi. Tasavvufning tarixi ham qiziq: birinchi asrlarda u “zuhd” deb atalib, dunyo ishlaridan voz kechgan va faqat Allohni o‘ylagan odamlarning hayoti sifatida tanilgan. Keyinchalik tasavvufiy yo‘nalishlar paydo bo‘lib, alohida tariqatlar tashkil topdi. Masalan, Ahmad Yassaviy yoki Bahouddin Naqshband asos solgan tariqatlar Markaziy Osiyoda juda mashhur bo‘lgan. Bu yo‘nalishning kitoblari ham juda ko‘p. Masalan, G‘azzoliy yozgan “Ihyou Ulum ad-Din” tasavvufda qalb pokligi va odob-axloqni o‘rganish uchun juda foydali. Rumiy yozgan “Masnaviy” esa Allohning ishqini she’riy yo‘lda tasvirlagan asar. Bularni o‘qib, inson nafaqat o‘zini, balki dunyoni ham boshqacha ko‘z bilan ko‘radi. Xullas, tasavvufni o‘rganish – bu bir tarafdin ilm, ikkinchi tarafdin hayot tarzi. Har bir odamga tasavvufning eng muhim darslari – ixlos, sabr, va sevgi – foyda beradi.

Xulosa qilib aytganda, tasavvuf bu insonning qalbini poklash, Allohni sevib, unga yaqinlashish yo‘lida ichki tarbiya beradigan ruhiy va amaliy yo‘nalishdir. U Islom dini asosida shakllangan bo‘lib, Qur’on va hadisga tayanadi. Tasavvufda axloqiy komillikka erishish, dunyoviy ehtirolardan voz kechib, Allohga chin dildan bo‘ysunish asosiy maqsad hisoblanadi. Tasavvuf nafaqat diniy hayot, balki ijtimoiy va madaniy sohalarda ham o‘z ta’sirini ko‘rsatgan. Jumladan, tasavvufiy tariqatlar orqali ma’naviyatni oshirish, insonlar o‘rtasida muhabbat va birdamlikni targ‘ib qilishga

katta hissa qo‘shilgan. Ahmad Yassaviy va Naqshbandiy tariqatlari Markaziy Osiyoda katta ta‘sir ko‘rsatib, xalqlar madaniyatida iz qoldirgan. Bugungi kunda ham tasavvufning axloqiy va ruhiy tamoyillari insonlarning ma‘naviy barkamollikka intilishida muhim rol o‘ynamoqda. Tasavvuf bizga qalbni poklash, odobni mukammallashtirish va Alloh bilan bog‘lanishga intilishning asl mohiyatini tushunib olishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Vikipediya maqolasi: “Tasavvuf”. Vikipediya Tasavvuf
2. “Tasavvufning paydo bo‘lish tarixi va manbalari” maqolasi. Tasavvuf tarixi
3. R. E. Abdimalik “Tasavvuf falsafasi tarixida naqshbandiylik ta‘limotining o‘rni” maqolasi
4. Al-G‘azzoliyning “Ihyou Ulum ad-Din”
5. Ibn Arabiy “Fusus al-Hikam”
6. Jaloliddin Rumiyning “Masnaviy”
7. Islom tarixiga oid umumiy ma‘lumotlarni beruvchi Islom Ensiklopediyasi sayti